

## ALISHER NAVOIY IJODIDA SPONTAN NUTQ ORQALI IJTIMOY MUNOSABATLARNING IFODALANISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19721372>

**Oktayeva Diloram Alisher qizi**

*Qo'qon universiteti,*

*Tayanch doktarant 1-bosqich*

*e-mail: [oktaevadiloram@gmail.com](mailto:oktaevadiloram@gmail.com)*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida badiiy diskurs doirasida yuzaga keladigan spontan nutq hodisasining kommunikativ, pragmatik hamda lingvopoetik xususiyatlari zamonaviy lingvopragmatik yondashuv asosida kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida spontan nutqning dialogik va monologik shakllari, ularning pragmatik nutq aktlari bilan uzviy bog'liqligi, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni ifodalashdagi semantik va funksional imkoniyatlari ochib beriladi. Navoiy asarlaridagi qahramonlar nutqi misolida spontan nutq vositalari orqali ijtimoiy mavqe, shaxsning ruhiy-psixologik holati, shaxslararo munosabatlar, kommunikativ niyat va strategiyalarning til birliklari orqali aks etishi yoritiladi. Shu bilan birga, badiiy matnda spontan nutqning ijtimoiy-psixologik omillar bilan bevosita aloqadorligi, uning jamiyatdagi kommunikativ jarayonlarni modellashtirish va diskursiv munosabatlarni shakllantirishdagi o'рни ilmiy asosda talqin etiladi. Tadqiqot natijalari Alisher Navoiy ijodining pragmatik va kommunikativ qirralarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qilib, badiiy diskursni kommunikativ-pragmatik nuqtai nazardan tadqiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

### **Kalit so'zlar**

Alisher Navoiy, spontan nutq, lingvopragmatika, kommunikativ pragmatika, pragmatik nutq aktlari, dialogik va monologik nutq, kommunikativ strategiya va taktika, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy mavqe, shaxslararo kommunikatsiya, psixolingvistik omillar, badiiy diskurs, diskurs tahlili.

### **Annotation**

This article provides a comprehensive analysis of the communicative, pragmatic, and linguopoetic features of spontaneous speech manifested within the framework of literary discourse in the works of Alisher Navoi, based on a modern linguopragmatic approach. The study examines dialogic and monologic forms of spontaneous speech, their intrinsic relationship with pragmatic speech acts, as well

as their semantic and functional potential in expressing social relations. Drawing on the speech of characters in Navoi's works, the research demonstrates how linguistic units of spontaneous speech reflect social status, psychological and emotional states, interpersonal relations, communicative intentions, and strategies. Furthermore, special attention is paid to the close interaction between spontaneous speech and socio-psychological factors in literary texts, emphasizing its role in modeling communicative processes and shaping discursive relations within society. The findings of the study contribute to a deeper understanding of the pragmatic and communicative dimensions of Navoi's literary heritage and expand the methodological possibilities for analyzing literary discourse from a communicative-pragmatic perspective.

### Keywords

Alisher Navoi, spontaneous speech, linguopragmatics, communicative pragmatics, pragmatic speech acts, dialogic and monologic speech, communicative strategy and tactics, social relations, social status, interpersonal communication, psycholinguistic factors, literary discourse, discourse analysis.

**Kirish.** So'z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy - turkiy adabiyot va til rivojlanishida benazir mavqega ega bo'lgan yetuk tafakkur sohibi shoir bo'lib, uning badiiy-adabiy boyligi turli yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar uchun qimmatli tadqiqot manbai hisoblanadi. Navoiy asarlarida til faqat badiiy ifoda vositasi bo'liq qolmay, balki ijtimoiy aloqalarni vujudga keltiruvchi va namoyon etuvchi yetakchi aloqa vositasi sifatida yuzaga keladi.[1,7] Ayniqsa, badiiy qahramonlar so'zida kuzatiladigan spontan nutq birliklari jamiyatdagi tizim, shaxslar o'rtasidagi munosabatlar va ruhiy kechinmalarni ifodalashda alohida ahamiyatga ega.

Spontan nutq - kontekstga mos ravishda, avvaldan tayyorlanmagan holda namoyon bo'ladigan nutq bo'lib, u aksariyat hollarda dialog ko'rinishida yuzaga keladi[2,302]. Bunday nutq orqali shaxslarning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy yaqinlik darajasi, kommunikativ maqsadlari va muloqot strategiyalari ifoda topadi [3,127]. Quydagi maqolada Alisher Navoiy ijodida spontan nutq orqali ijtimoiy munosabatlarning qanday namoyon bo'lishi nazariy va amaliy nuqtayi nazardan o'rganiladi.

Hozirgi zamon jahon tilshunosligida pragmatika, diskurs tahlili hamda nutq aktlari nazariyasiga bo'lgan ilmiy qiziqish tobora ortib bormoqda va bu yo'nalishlar tilni faqat strukturaviy hodisa sifatida emas, balki kommunikativ jarayon, ijtimoiy-madaniy tajriba va pragmatik faoliyat mahsuli sifatida o'rganishga imkon bermoqda. Xususan, badiiy matnni nutqiy jarayon sifatida talqin etish, unda qo'llanilgan lingvistik birliklarning kontekstual, kommunikativ

va pragmatik funksiyalarini aniqlash zamonaviy tilshunoslikning ustuvor ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, badiiy diskursda spontan nutq hodisasining o'rni, uning dialogik va monologik shakllarda namoyon bo'lish mexanizmlari, shuningdek, pragmatik nutq aktlari bilan o'zaro aloqasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy asarlari boy badiiy-estetik va lingvistik imkoniyatlarga ega bo'lishiga qaramay, ulardagi spontan nutq hodisasi hozirga qadar kommunikativ-pragmatik yondashuv asosida tizimli va kompleks tarzda yetarlicha tadqiq etilmagan. Qahramonlar nutqida namoyon bo'ladigan spontanlik, nutqiy niyat, ijtimoiy mavqe va shaxslararo munosabatlarning til vositalari orqali ifodalanishi masalalarining chuqur o'rganilmasligi mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi hamda uni lingvopragmatik va diskursiv tahlil nuqtayi nazaridan o'rganishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, Navoiy asarlarida tasvirlangan jamiyatdagi aloqalarni spontan nutq vositasida ilmiy jihatdan tadqiq qilish muayyan tarixiy davr jamiyatining ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarini, shaxsning jamiyat bilan munosabati yanada mukammal tushunishga imkon yaratadi.

Alisher Navoiy ijodida spontan nutq orqali ijtimoiy munosabatlarning namoyon bo'lish yo'llarini belgilash va ularning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini tahlil orqali asoslashdan iborat.

Maqolada quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- spontan nutq tushunchasining nazariy jihatlarini ochib berish;
- Navoiy asarlarida spontan nutq birliklarini aniqlash;
- spontan nutq orqali ifodalangan ijtimoiy munosabat turlarini tasniflash;
- nutq aktlari va pragmatik niyatlarning ijtimoiy muhitdagi ahamiyatini o'rganish.

Spontan nutq bevosita muloqot vaziyatiga mos ravishda, oldindan rejalashtirilmagan holda yuzaga kelib, unda tabiiylik, hissiy-ekspressivlik hamda nutqiy erkinlik ustuvor xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. Bunday nutq turida so'zlovchining individual nutqiy kompetensiyasi, psixologik holati va kommunikativ niyati bevosita til birliklari orqali ifodalanadi. Spontan nutqda murojaat birliklari, modal so'zlar, baholovchi leksik vositalar, emotsional-ekspressiv shakllar hamda turli xil pragmatik nutq aktlari faol qo'llanilib, ular muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Pragmatik nuqtai nazardan qaralganda, spontan nutq so'zlovchining adresatga bo'lgan munosabati, ijtimoiy masofa va mavqe tafovutini, shuningdek, nutqiy ta'sir ko'rsatish maqsadini ochib beruvchi kommunikativ mexanizm sifatida

namoyon bo'ldi. Shu jihatdan, spontan nutq nafaqat axborot uzatish, balki ijtimoiy va psixologik munosabatlarni shakllantirish hamda mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Navoiy asarlarida spontan nutq badiiy qahramonlar tabiatini yoritishda yetakchi usul bo'lib, ularning ijtimoiy mavqei va shaxslararo munosabatini yaqqol namoyon etadi.

Navoiy badiiy merosida ijtimoiy aloqalar har tomonlama aks ettirilgan. "Xamsa", "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr" va "Muhokamat ul-lug'atayn" kabi asarlarda hukmdor va fuqaro, ustoz va shogird, do'stlar va raqiblar o'rtasidagi munosabatlar spontan nutq orqali tabiiy va ishonchli tarzda namoyon bo'ldi. Ayniqsa, Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida nutq masalalarini chuqurroq va teranroq yoritib bergan[4,107]

Qahramonlar nutqida maslahat, kinoya, iltimos, tanbeh, hurmat va itoat kabi pragmatik maqsadlar yuzaga chiqadi. Bu esa ijtimoiy munosabatlarning lingvistik birliklar orqali qanday vujudga kelishini ochib beradi.

Alisher Navoiy asarlarida spontan nutq ijtimoiy maqom va shaxslararo munosabatlarni ifodalovchi muhim pragmatik vosita sifatida namoyon bo'ldi. Xususan, "Xamsa" dostonlarida podshohlar, amirlar va ustoz maqomidagi qahramonlar nutqida buyruq, pand-nasihati va ogohlantirishga yo'naltirilgan nutq aktlari yetakchi o'rin egallaydi. Masalan, "Hayrat ul-abror" dostonida hukmdor nutqida uchraydigan "Adl ila mulkni tut, zolimlikdin hazar qil" kabi ifodalar buyruq va didaktik nutq aktining spontan shaklda yuzaga kelganini ko'rsatadi[5,357]. Aksincha, quyi ijtimoiy qatlam vakillari yoki oshiq obrazlar nutqida iltimos, uzr va bo'ysunishni ifodalovchi birliklar ko'proq qo'llaniladi.

Alisher Navoiy asarlarida ijtimoiy maqom va ierarxik munosabatlar qahramonlar nutqining shakli, mazmuni hamda pragmatik yo'nalishi orqali yaqqol namoyon bo'ldi. Jamiyatda yuqori ijtimoiy mavqega ega bo'lgan qahramonlar nutqida buyruq, farmoyish, pand-nasihati va yo'l-yo'riq berishga yo'naltirilgan nutqiy shakllar ustuvorlik kasb etadi. Aksincha, quyi ijtimoiy pog'onada turgan shaxslar nutqida iltimos, uzr, bo'ysunish, o'zini past tutish va ehtiyotkorlikni ifodalovchi lingvistik birliklar keng qo'llaniladi. Mazkur farqlanish spontan nutqning ijtimoiy tabaqalanish jarayonidagi muhim ko'rsatkichlardan biri ekanini tasdiqlaydi hamda nutqiy xulq-atvorning jamiyatdagi mavqe bilan bevosita bog'liqligini ochib beradi.

Alisher Navoiy ijodida spontan nutq badiiy diskursning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lib, u orqali qahramonlarning ijtimoiy maqomi, psixologik holati va shaxslararo munosabatlari til vositalari yordamida ifodalanadi. Navoiy asarlarida nutq ko'pincha oldindan qat'iy rejalashtirilmagan, muloqot vaziyatiga

bevosita bog'liq holda shakllanadi va bu holat spontan nutqqa xos bo'lgan hissiylik, erkinlik hamda tabiiylikni yuzaga chiqaradi. Xususan, "Xamsa" dostonlari tarkibidagi dialogik lavhalarda hukmdorlar, amaldorlar va ustoz maqomidagi qahramonlar nutqida buyruq, farmoyish, pand-nasihat va ogohlantirishga yo'naltirilgan pragmatik nutq aktlari ustuvorlik qiladi. Masalan, "Hayrat ul-abror" dostonida adolat, axloq va davlat boshqaruvi haqida so'z yurituvchi qahramonlar nutqida buyruq ohangi kuchli bo'lib, bu ijtimoiy ustunlik va hokimiyat mavqeining til orqali ifodalanishini ko'rsatadi. Bunday nutq aktlari adresatga bevosita ta'sir ko'rsatish, uni muayyan xulq-atvorga yo'naltirish maqsadini ko'zlaydi.

Aksincha, quyi ijtimoiy pog'onaga mansub qahramonlar yoki oshiq obrazlar nutqida iltimos, uzr, bo'ysunish va o'zini past tutishga xos birliklar faol qo'llaniladi. "Layli va Majnun" dostonida Majnun obrazi nutqida spontanlik yuqori darajada namoyon bo'lib, uning murojaatlari hissiy-ekspressivlik bilan yo'g'rilgan. Majnunning Layliga yoki jamiyat vakillariga qilgan murojaatlarida iltimos va o'zini oqlashga yo'naltirilgan nutq aktlari ustuvor bo'lib, bu uning ijtimoiy ajralganligi va ruhiy iztirobini ifodalovchi muhim pragmatik belgidir. Shuningdek, "Farhod va Shirin" dostonida Farhodning Shiringa bo'lgan murojaatlarida ham spontan nutqqa xos bo'lgan samimiylik, hissiylik va nutqiy erkinlik yaqqol ko'zga tashlanadi:

*Farhod: «Ey Layli o'rnidagi Shirin, sening ko'zing, sening tabassuming yuragimni olovga soldi, men seni ko'rganimda butun dunyo unutilib ketadi.»[7]*

Nutq aktlari nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, Navoiy asarlarida spontan nutq doirasida buyruq, so'rov, iltimos, ogohlantirish, maqtov va tanqid kabi illokutiv aktlarning turli ko'rinishlari uchraydi. Ushbu nutq aktlari qahramonlarning ijtimoiy maqomi, o'zaro munosabat turi hamda kommunikativ vaziyatga mos ravishda shakllanib, badiiy matnda ijtimoiy-psixologik munosabatlarni ifodalovchi muhim vosita vazifasini bajaradi. Demak, Alisher Navoiy ijodida spontan nutq nafaqat badiiy-estetik vazifani ado etadi, balki jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish, shaxslararo aloqalar va kommunikativ strategiyalarni modellashtirishda muhim lingvopragmatik ahamiyat kasb etadi. "Hayrat ul-abror" dostonida qahramonlarning nutqi ijtimoiy tabaqalanishni aks ettiradi. Masalan, Abror bilan shogirdlarining dialogi: shogirdlar savol beradi, Abror esa **nasihat va maslahat bilan javob beradi**, bu esa nutqning **kommunikativ strategiya** sifatidagi rolini ko'rsatadi[5].

Nutq aktlari nazariyasi nuqtai nazaridan yondashilganda, Navoiy asarlaridagi spontan nutqda buyruq, so'rov, iltimos, ogohlantirish, maqtov va tanqid kabi illokutiv aktlarning faol qo'llanilishi kuzatiladi. Ushbu nutq aktlari muloqot

ishtirokchilarining ijtimoiy maqomi, o'zaro munosabat turi hamda kommunikativ vaziyatga muvofiq holda yuzaga kelib, badiiy matnda ijtimoiy-psixologik munosabatlarni ifodalovchi muhim pragmatik vosita sifatida xizmat qiladi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Alisher Navoiy ijodida spontan nutq badiiy diskursning muhim tarkibiy qismi sifatida nafaqat obrazlarning ichki dunyosini, balki ularning ijtimoiy munosabatlarini ifodalashda ham markaziy kommunikativ-pragmatik vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, spontan nutq orqali qahramonlarning ijtimoiy mavqei, shaxslararo munosabatlari, ruhiy-psixologik holati va muloqotdagi niyati tabiiy, erkin va ta'sirchan tarzda yoritiladi. Bu jarayonda nutqning dialogik va monologik shakllari, murojaat birliklari, modal vositalar, baholash shakllari va nutq aktlari faol qo'llanilib, badiiy matnga ekspressivlik va samimiylilik bag'ishlaydi.

Navoiy asarlarida foydalanilgan spontan nutq ko'rinishlarini nutq aktlari nazariyasi nuqtai nazaridan tahlil qilganda, farmoyish, iltimos, pand-nasihat, tanbeh, ogohlantirish, maqtov va tanqid kabi illokutiv aktlarning jamiyatdagi sharoit, ijtimoiy mavqe va muloqot niyatiga muvofiq tarzda ishlatilgani yaqqol ko'rinad. **"Saddi Iskandariy"** dostonida voqea-hodisalar orqali qahramonlar o'rtasida ko'plab **buyruq, ogohlantirish va tanqid** shakllarini namoyon qiladi. Iskandar va uning askarlari o'rtasidagi suhbatlarda **buyruq va ogohlantirishlar** ko'p uchraydi, shuningdek, doston ichida **axloqiy nasihat va tanqid** elementlari ham mavjud[8,150]. **"Sabbayi sayyor"** dostonining falsafiy-axloqiy yo'nalishi illokutiv aktlarning **iltimos, so'rov va maqtov** shakllarida ifodasini beradi. Shogirdlar ustozlariga savol berishi – **so'rov**; ustozning ularga maslahat berishi – **buyruq va ogohlantirish** sifatida namoyon bo'ladi[9,200].

Bu holat lingvistik birliklarning nafaqat semantik, balki pragmatik yuklamaga ega ekanini, ularning ijtimoiy kontekst bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Navoiy ijodidagi spontan nutqning kommunikativ-pragmatik funksiyasi ijtimoiy tabaqalanish, ijtimoiy masofa va shaxsiy mavqe kabi omillar bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. Yuqori ijtimoiy maqomga ega qahramonlar nutqida buyruq, nasihat va farmoyish shakllari ustunlik qilsa, quyi ijtimoiy pog'onadagi shaxslar nutqida iltimos, uzr va bo'ysunish ifodalari keng qo'llanilishi bu bog'liqlikni aniq namoyon qiladi.

Shuningdek, spontan nutq qahramonlar o'rtasidagi psixologik va ijtimoiy munosabatlarning til vositalari orqali tabiiy ifodalanishiga imkon yaratadi. Nutqdagi hissiy-ekspressivlik, erkinlik va samimiylilik badiiy matnga realizm va dinamika baxsh etadi, shu bilan birga kommunikativ-pragmatik tahlilning ilmiy asoslarini mustahkamlaydi. Natijada, Navoiy ijodida spontan nutqning o'rganilishi badiiy diskursni lingvopragmatik nuqtai nazardan tahlil qilish imkoniyatlarini

kengaytiradi, ijtimoiy va psixologik munosabatlarni til vositalari orqali aniqlashga xizmat qiladi hamda nutq aktlari nazariyasi va pragmatikaning amaliy tadqiqot sohasida muhim ilmiy hissa qoʻshadi.

Shu bois, Alisher Navoiy asarlarida spontan nutqning oʻrganilishi nafaqat badiiy-estetik, balki lingvistik, kommunikativ va ijtimoiy jihatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi, nutqning ijtimoiy mavqe, shaxsiy pozitsiya va muloqot niyatini aks ettirishdagi roli hamda nutq aktlari orqali jamiyatdagi ijtimoiy strukturani namoyon etish xususiyatlarini tadqiq qilishga katta hissa qoʻshadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Togʻayev T. M. *Notiqlik va nutq madaniyati Alisher Navoiy talqinida* // Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon, 2020. – 4 may. 415
2. Raxmonova Z. M., Umarova N. R. *Ayol spontan nutqi* / Z. M. Raxmonova, N. R. Umarova // – Fargʻona davlat texnika universiteti 2-son akademik litseyi; FarDU tilshunoslik kafedrası.
3. Qurbonova Y. *Alisher Navoiy asarlarining muloqot nutqi koʻnikmalarini shakllantirishdagi oʻrni* / Y. Qurbonova // – 2-qism. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti (Oʻzbekiston). 129
4. Xadjimetova G.I. *Alisher Navoiy asarlarida til va nutq masalalari* // **Yangi Oʻzbekiston pedagoglari axborotnomasi**. – 2024. – 30-yanvar.
5. Navoiy A. **Hayrat ul-abror** / A. Navoiy. – Toshkent : Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 2013. – 384 b.
6. Navoiy A. **Layli va Majnun** / A. Navoiy. – Toshkent : Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 344 b.
7. **Navoiy A. Farhod va Shirin** / A. Navoiy. – Toshkent : Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2020. – 344 b.
8. Navoiy A. **Saddi Iskandariy** / A. Navoiy. – Toshkent : Fan, 1990. – 400 b.
9. Navoiy A. **Sabʼayi sayyor** / A. Navoiy. – Toshkent : Fan, 1990. – 360 b.